



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No 7**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'aurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Umarova H. O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	16
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....	20
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati .....	23
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	27
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limi o'yinlarning ahamiyati .	31
Salimova Dilmira Farkodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	34
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'naliishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	37
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar .....	41
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ....	44
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	48
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	53
Isayeva Mushtari Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	56
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	60
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish:	
bosqichlar va tamoyillar .....	65
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	68
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction:	
a Review of Recent Literature .....	73
Ruzieva Miftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga	
qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	78
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi	
(9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) .....	81
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	85
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной	
письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	88
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari	
raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	93
Jonibekov Jasur Jonibekovich	
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	98
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH

Nazarov Odil Omanqulovich

Iqtisodiyot va pedagogika NTM,  
Pedagogika va o'qitish metodikasi kafedrasи dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatining tarkibiy qismlarini rivojlantirish uchun ta'lif jarayonida muayyan sharoitlar yaratish zarurligi yoritilgan. Ijodiy ta'lif faoliyati insonparvarlik xususiyatiga ega bo'lib, umuminsoniy qadriyatlar tizimiga tayanishi lozim. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda qobiliyat va mayllarni rivojlantirishda o'qituvchining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsida uning individual iqtidorini tan olish va rivojlantirish, shuningdek, yosh o'quvchining ijodiy faoliyatini shakllantirishda individual yondashuvni topa bilishdan iboratdir. Metodik kompetentlik tushunchasi bugungi kunda ilmiy nuqtai nazaridan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Maqolada metodik bilimlar, ularning tarkibiy qismlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ushu kompetensiyalarni qanday shakllantirish mumkinligi muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** kichik yosh, o'quvchilar, ijodiy faoliyat, tarkibiy qismlar, ta'lif jarayoni, ijodiy ta'lif, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, qobiliyat va mayllar, individual iqtidor, individual bilimlar, akmeologik, integrallik, kognitiv, vazifa.

**Abstract:** This article emphasizes the importance of creating specific conditions for the development of the components of creative activity among primary school students. Creative educational activity should be humane and grounded in a system of universal human values. The development of a child's abilities and inclinations requires the teacher to recognize and nurture each student's individual talent, as well as to identify a personalized approach for fostering their creative activity. The concept of methodological competence is considered a relevant issue from a scientific perspective. The article explores methodological knowledge, its structural elements, and ways to develop such competencies in primary school teachers.

**Key words:** early age, pupils, creative activity, components, educational process, creative education, humanity, universal human values, abilities and inclinations, individual talent, personal knowledge, acmeological, integral, cognitive, task.

**Аннотация:** В статье подчеркивается необходимость создания определённых условий для развития компонентов творческой деятельности младших школьников. Творческая образовательная деятельность должна носить гуманистический характер и основываться на системе общечеловеческих ценностей. Развитие способностей и склонностей у младших школьников требует от учителя распознавания и поддержки индивидуальной одарённости каждого ребёнка, а также выбора индивидуального подхода к формированию творческой активности. Понятие методической компетентности рассматривается как актуальная научная проблема. В статье анализируются методические знания, их составляющие, а также пути формирования методической компетентности у учителей начальных классов.

**Ключевые слова:** младший возраст, учащиеся, творческая деятельность, компоненты, образовательный процесс, творческое обучение, гуманизм, общечеловеческие ценности, способности и склонности, индивидуальная одарённость, индивидуальные знания, акмеологический, интегральный, когнитивный, задача.

## KIRISH

Butun dunyo va mamlakatimiz zamonaviy rivojlanish jarayonida sodir bo'layotgan o'zgarishlar va izlanishlar ijodkorlikni rivojlantirishga bo'lgan e'tiboring ortib borishi bilan harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'imoqda. Hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan ta'lifning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish uchun ta'lif jarayonida qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Bilish faoliyatini samarali tashkil etish esa ushu masalani hal etishda ustuvor vazifa hisoblanadi.

O'qituvchining pedagogik mahorati – uning malakasi, kasbiy qobiliyati va pedagogik bilimlarining o'sishiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omillardan biri – doimiy kasbiy malaka oshirish orqali takomillashib boradi.

Bugungi kunda ilmiy-pedagogik hamjamiyatda kasbiy-pedagogik bilimlarning mohiyati va tuzilishiga oid masalalar yuzasidan qizg'in ilmiy munozaralar olib borilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yevropa tadqiqotchilari – V.A. Adolf, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, E.L. Pupysheva, G.S. Savolainen, L.V. Shkerin va boshqalar – kasbiy kompetentlikning turli shakllarini farqlashadi: metodik, innovatsion, psixologik, kreativ, kommunikativ va boshqalar. Ular orasida ayniqsa o'qituvchining metodik kompetentligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u boshqa bir qator kompetensiyalarni ham o'z ichiga oladi va aynan uning rivojlanish darajasi o'qituvchining kasbiy mahorati va ta'limgagi samaradorligini belgilaydi.

O'qituvchining metodik kompetentligi haqida turli mualliflar o'z tadqiqotlarida xilma-xil yondashuvlarni ilgari surishgan. Xususan, O.V. Tumasheva metodik kompetentlikni o'qituvchining metodik bilimlari, amaliy ko'nikmalarini va faoliyat uslublariga egaligi, bu bilimlarning kasbiy faoliyatdagini hamda ijtimoiy aloqalardagi ahamiyatini anglay olishi, uslubiy muammolarni hal etish tajribasi, o'zini o'zi tarbiyalash va takomillashtirishga tayyorligi bilan tavsiflaydi. U bu tushunchani shaxsnинг integral xarakteristikasi sifatida izohlaydi [1].

Shuningdek, E.V. Maltseva metodik kompetentlikni o'qituvchining shaxsiyati va faoliyatining integratsiyalashgan, ko'p darajali, kasbiy jihatdan ahamiyatli xususiyati sifatida talqin etadi. U bu kompetensiyani o'qituvchining metodologik bilimlar, ko'nikma va malakalarni tizimli egallashi, shuningdek, kasbiy-pedagogik faoliyatda ularni samarali qo'llay olishi orqali namoyon bo'ladigan holat deb hisoblaydi [4].

Maltsevaning fikriga ko'ra, metodik kompetentlik o'qituvchining ishbilarmonligi, shaxsiy va axloqiy fazilatlarining ajralmas qismi bo'lib, bu o'z navbatida metodik, uslubiy va tadqiqotga oid bilim, ko'nikma, tajriba, motivatsiya, qobiliyat va ijodiy o'zini namoyon qilishga tayyorlikning tizimli darajasini o'zida aks ettiradi [4].

Shuningdek, L.V. Shkerina o'qituvchining kasbiy faoliyatini tahlil qilish asosida kasbiy-pedagogik kompetensiyaning strukturaviy modelini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, o'qituvchining metodik kompetensiyasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismiga ajratiladi: kognitiv, faoliyatga oid va ijtimoiy-shaxsiy komponentlar [2].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich ta'limga bosqichi shaxsnинг bilish jarayoni va dunyoqarashi shakllanishida muhim poydevor hisoblanadi. O'quvchilarga beriladigan bilim, tarbiya va kompetensiyalar aynan shu davrda mustahkam asosga ega bo'ladi. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchisining ma'nnaviy-axloqiy va kasbiy yetukligi, uning shaxsiyati va kasbiy kompetensiyasi o'quvchining kelajakdagi taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining metodik kompetentligini shakllantirish bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda kompleks yondashuv qo'llaniladi. Bu yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- metodik bilimlarning mazmuniy tahlili;
- metodik kompetensiyaning tarkibiy qismi (kognitiv, faoliyatga oid, shaxsiy) asosida modellashtirish;
- ilg'or xorijiy va milliy tajribalarni solishtirma tahlil qilish;
- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini amaliy kuzatish va empirik ma'lumotlar asosida tavsiflash.

Metodik kompetentlikning nazariy asoslari fanlararo yondashuvda – pedagogika, psixologiya, metodologiya, akmeologiya va kasbiy rivojlanish nazariyalariga tayangan holda ishlab chiqiladi. Tadqiqotlarda ko'pincha sifatli tahlil (kontent-analiz, struktura tahlili) hamda miqdoriy metodlar (anketalar, testlar, baholash mezonlari) qo'llanadi.

Ushbu yondashuv o'qituvchining metodik kompetensiyasini shakllantirishda individual, tizimli va bosqich-ma-bosqich metodik yondashuvlar samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchining metodik bilimlarining kognitiv tarkibiy qismi – bu o'qituvchining metodik bilimlar tizimiga ega bo'lishi, shuningdek, ushbu bilimlarning o'zi uchun, kasbiy faoliyati va kasbiy o'sishi uchun ahamiyatini anglash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu tarkibiy qism, o'qituvchining metodik faoliyatning asosiy turlarini samarali amalga oshirishi, o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish va baholash, ularni kutilgan hamda rejalashtirilgan natijalarga muvofiqlik nuqtai nazaridan o'zgartirish imkoniyatini ham ta'minlaydi.

O'qituvchining ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyasi uning uslubiy faoliyatida talab etiladigan hamda jamiyat bilan yeterli va samarali o'zaro ta'sirga kirishish imkonini beruvchi shaxsiy fazilatlarga asoslanadi. Tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini o'rganish asosida metodik kompetensiyaning bir qancha funksiyalari ajratib ko'rsatiladi: akmeologik, innovatsion, bashoratlovchi, integral, rag'batlantiruvchi, boshqaruvchi va refleksiv [1].

**Akmeologik funksiyasi** – bu o'qituvchining kasbiy va shaxsiy kamolotiga erishishga xizmat qiladi. Uslubiy kompetensiya ta'limga jarayonining sub'ekti sifatida o'qituvchining o'zini o'zi rivojlantirishga intilishi, yangi kasbiy fazilatlarni egallab, yuqori darajadagi pedagogik mahoratga erishish yo'lida faol harakat qilishi bilan tavsifla-

nadi. Mazkur funksiya o'qituvchining kasbiy salohiyatini, ijodiy qobiliyatini va individualligini rivojlantirishga qaratilgan.

**Innovatsion funksiyasi** – o'qituvchining yuqori darajadagi uslubiy malakasini shakllantirish, mavjud stereotiplarni yo'qotish, fikrlash va faoliyatni yangilash hamda maktab o'quvchilari uchun o'qitish jarayonining mohiyatini chuqr anglash imkonini beruvchi tahliliy ko'nikmalarни rivojlantirishni nazarda tutadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining maktabdagи innovatsion jarayonlarning ahamiyati va zarurligini anglay olishi, innovatsion ta'lim texnologiyalarini bilishi hamda ularni amaliyatga samarali joriy eta olishi nihoyatda muhim hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadi, mакtab tizimida innovatsion texnologiyalar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish orqali o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qo'shimcha motivatsiya yuzaga kelmoqda [6].

**Bashoratlovchi funksiyasi** – bu o'qituvchining kasbiy faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uslubiy muammolarni oldindan ko'ra bilishi, ularni bartaraf etish bo'yicha samarali modellar ishlab chiqishi va qabul qilinadigan qarorlarning oqibatlarini oldindan baholash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Integral funksiyasi** – pedagogik, psixologik, metodik bilimlar hamda amaliy faoliyat uslublari o'rtaida uzviy bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan.

**Rag'batlantiruvchi funksiyasi** – o'qituvchining kasbiy motivatsiyasini oshirish, mavzuga chuqr qiziqish uyg'otish va samarali uslubiy faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan pedagogik, psixologik va metodik bilim-larga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Boshqaruv funksiyasi ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi: bir tomondan, o'qituvchining ta'lim jarayonidagi o'z faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va moslashtirish ko'nikmalarini; ikkinchi tomondan, o'quvchilarning bilim o'zlashtirish faoliyati va har bir o'quvchining individual rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim uslublari boshqarish qobiliyatini nazarda tutadi.

Metodik bilimlarning rivojlanishi o'qituvchining faoliyatida yuzaga keladigan o'zgarishlar, motivatsiya, maqsadlar va yangilanishga bo'lgan ehtiyoj bilan chambarchas bog'liqidir. Bu jarayon yangi vosita va uslublarni qo'llash, faoliyat dasturlari bilan birgalikda olib boriladi. Turli pedagogik transformatsiyalar natijasida o'qituvchining metodik qobiliyati shakllanadi.

Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi tarbiyadagi murakkab vaziyatlarni yengib o'tishga qodir, o'quvchilarning psixologik holatini chuqr anglaydigan, ularning his-tuyg'ularini sezadigan, bolalar hayotidagi qiyinchiliklarni ko'ra oladigan va ularga muruvvat bilan yondasha oladigan, bilimdon va ijodkor, mustahkam ilmiy dunyoqarashga ega mutaxassis hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- O'qituvchilarning pedagogik faoliyati davomida yuzaga keladigan metodik muammolarni anglash va ularni hal etish qobiliyati – kasbiy kompetensiyaning asosiya tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan metodik bilimlarning samarali shakllanganligiga bog'liqidir.
- O'qituvchining metodik bilimlari tarkibiy qismlarga ega bo'lib, ular asosida butun kasbiy faoliyati davomida mavjud bilimlarni takomillashtirish va boyitish imkoniyati shakllanadi.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi yondashuvlarga e'tibor qaratishi lozim:

1. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga faol va tizimli ta'sir ko'rsatish;
2. Har bir o'quvchi faoliyatining ahamiyati va yutuqlarini tan olib, hatto ular bir qarashda muhim emasdek tuyulgan holatlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik;
3. O'quvchilarni tarbiyaning ayrim jihatlarini anglashga o'rgatish, shu orqali o'quv va mehnat faoliyatini mavjud kognitiv ehtiyojlar bilan bog'lash;
4. O'quvchilarda o'z o'quv faoliyatida maqsad qo'yish malakasini shakllantirish;
5. Bolalarni shart-sharoitlarni tahlil qilish, fikr yuritish, muhokama qilish va maqsadga yo'naltirilgan yechimlarni izlashga undash;
6. Qidiruv faoliyatining rolini kuchaytirish orqali muammoni hal etishda faol ishtirokni ta'minlash hamda o'rganilayotgan hodisalarini chuqr tahlil qilishga yo'naltirish;

7. Muammoli vaziyatlarda sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish orqali ijodiy fikrlash va faoliyatni faol-lashtirish.

Ijobiy o'quv motivatsiyasini shakllantirish kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, o'quvchilarda doimiy bilim olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash hamda ularning ichki tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, o'quvchilarning og'zaki-kommunikativ, vosita-manipulyativ va grafik vositalar asosida birgalikda ishlashi – ularning ijtimoiylashuvi va hamkorlikda faoliyat yuritish malakalarining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlaridagi uslubiy bilimlarni rivojlantirish uchun yuqorida keltirilgan funksiyalar va yondashuvlarni o'rganishlari, shuningdek, ularni amaliy tajribada samaralni qo'llash orqali metodik kompetensiyalarni shakllantirishga erishadilar.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O.V. Tumasheva. O'qituvchining metodik kompetentligi haqida // V.P. Astafyev nomidagi KGPU axborotnomasi. Dars berish metodikasi. 2009 (1).
2. L.V. Shkerina. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik sifati monitoringi: o'quv-metodik qo'llanma / L.V. Shkerina, V.A. Adolf, G.S. Savolaynen, M.B. Shashkina, M.V. Litvintseva; V.P. Astafyev nomidagi Krasnoyarsk davlat universiteti. – Krasnoyarsk, 2004. – 244 b.
3. O.P. Filatova. Pedagoglarda metodik kompetensiyani shakllantirish jarayoni: audiovizual ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish asosida // Ilmiy-nazariy jurnal. 1(14), 2013.
4. E.V. Maltseva. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini uzlusiz pedagogik ta'lim tizimida rivojlantirish / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 2006. – 6 b.
5. A.K. Markova. O'qituvchi mehnati psixologiyasi / A.K. Markova. – Moskva: Prosveshchenie, 1993. – 192 b.
6. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 137 bet.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.